HARBIY JAMOALARDA O‘ZARO ISHONCHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Artikbayev Askarali Akbaraliyevich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi
E-mail: askarali8514@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada harbiy jamoalarda o‘zaro ishonch fenomenining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Ishonch muammosiga oid falsafiy-sotsiologik, psixologik, tashkiliy-boshqaruv va harbiy-sotsiologik yondashuvlar qiyosiy o‘rganilib, ularning harbiy jamoa sharoitidagi ahamiyati ochib berilgan. Harbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari – qat’iy ierarxiya, yakkaboshchilik, hayot uchun real xavf va o‘zaro bog‘liqlik – ishonchni oddiy ijtimoiy-psixologik hodisadan jangovar qobiliyatning tizim hosil qiluvchi omiliga aylantirishi asoslangan. Harbiy intizom va ishonchning o‘zaro nisbati masalasida muallif pozitsiyasi bayon etilgan. O‘zaro ishonchning vertikal, gorizontal va institutsional yo‘nalishlarini, kognitiv, emotsional, xulq-atvor va qadriyat-me’yoriy komponentlarini hamda funksiyalarini qamrab oluvchi tuzilmaviy-funksional model taklif etilgan. Mazkur hodisani tadqiq etishda tizimlilik, faoliyat, determinizm, rivojlanish va ijtimoiy-madaniy tamoyillarning metodologik ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zaro ishonch, harbiy jamoa, jipslik, qo‘mondon, ierarxiya, harbiy intizom, ishonchga loyiqlik, psixologik xavfsizlik, tizimli yondashuv, faoliyat yondashuvi.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы феномена взаимного доверия в воинских коллективах. Проведён сравнительный анализ философско-социологического, психологического, организационно-управленческого и военно-социологического подходов к проблеме доверия, раскрыто их значение для условий воинского коллектива. Обосновано, что специфика военной деятельности (жёсткая иерархия, единоначалие, реальная угроза жизни и взаимозависимость) превращает доверие из обычного социально-психологического явления в системообразующий фактор боеспособности. Изложена авторская позиция по вопросу соотношения воинской дисциплины и доверия. Предложена структурно-функциональная модель взаимного доверия, охватывающая его вертикальное, горизонтальное и институциональное направления, когнитивный, эмоциональный, поведенческий и ценностно-нормативный компоненты, а также функции. Показано методологическое значение принципов системности, деятельности, детерминизма, развития и социокультурной обусловленности для исследования данного феномена.

Ключевые слова: взаимное доверие, воинский коллектив, сплочённость, командир, иерархия, воинская дисциплина, надёжность, психологическая безопасность, системный подход, деятельностный подход.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations of mutual trust in military teams. Philosophical-sociological, psychological, organizational and military-sociological approaches to trust are compared, and their relevance to the conditions of a military team is discussed. It is argued that the specific features of military activity (strict hierarchy, unity of command, real threat to life and mutual interdependence) turn trust from an ordinary socio-psychological phenomenon into a system-forming factor of combat effectiveness. The author's position on the relationship between military discipline and trust is presented. A structural-functional model of mutual trust is proposed, covering its vertical, horizontal and institutional directions, its cognitive, emotional, behavioral and value-normative components, and its functions. The methodological significance of the principles of systemicity, activity, determinism, development and socio-cultural conditioning for the study of this phenomenon is shown.

Keywords: mutual trust, military team, cohesion, commander, hierarchy, military discipline, trustworthiness, psychological safety, systems approach, activity approach.

Kirish

Harbiy tuzilmaning qudrati faqat qurol-yarog‘, harbiy texnika va shaxsiy tarkib soni bilan o‘lchanmaydi. Harbiy tarix bir-biriga suyangan, bir-birining yelkasini his qiladigan kichik bo‘linmalar son jihatdan ustun, ammo ichdan bo‘shashgan kuchlarga bardosh bergan holatlarni ko‘p bor qayd etgan. Ana shu «yelka hissi»ning psixologik negizida o‘zaro ishonch yotadi. Askar yonidagi safdoshi o‘z vazifasini oxirigacha bajarishiga, qo‘mondon esa qo‘l ostidagilar buyruqni so‘zma-so‘z emas, balki uning asl maqsadini anglagan holda ijro etishiga ishonmas ekan, eng puxta ishlab chiqilgan reja ham qog‘ozda qolib ketaveradi.

Mamlakatimizda qabul qilingan Mudofaa doktrinasi [1] va Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi [2] xavfsizlikni ta’minlash tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarning ijrosi pirovard natijada tizimda xizmat qilayotgan insonlarga – ularning kasbiy mahorati, ma’naviy-psixologik tayyorgarligi va jamoa bo‘lib harakat qila olishiga bog‘liq ekanini alohida ta’kidlash lozim. Ayniqsa, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlash kabi vazifalarni bajaruvchi harbiy bo‘linmalarda vaziyat tez o‘zgaradi, qaror qisqa vaqt ichida qabul qilinadi, xatoning bahosi esa yuqori bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘zaro ishonch bo‘linma faoliyatining ko‘zga ko‘rinmas, ammo hal qiluvchi resursiga aylanadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili ishonch muammosi falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot va tashkiliy psixologiyada keng o‘rganilganini, biroq uning harbiy jamoa sharoitidagi o‘ziga xosligi milliy ilmiy adabiyotlarda hali yetarlicha tizimlashtirilmaganini ko‘rsatadi. Ko‘plab ishlarda «ishonch» tushunchasi «jipslik», «intizom», «sadoqat» kabi yaqin tushunchalar bilan aralash qo‘llaniladi, natijada uning mustaqil psixologik mazmuni e’tibordan chetda qoladi. Bizningcha, ishonchni intizomning «yumshoq» qo‘shimchasi sifatida emas, balki o‘z tuzilmasi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlariga ega mustaqil hodisa sifatida o‘rganish vaqti keldi.

Maqolaning maqsadi – harbiy jamoalarda o‘zaro ishonchni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, mavjud ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish va mazkur hodisaning tuzilmaviy-funksional modelini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ishonch fenomenining asosiy nazariy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish;
- harbiy jamoadagi ishonchning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- o‘zaro ishonchning tarkibiy tuzilishi va funksiyalarini asoslash;
- uni empirik o‘rganishning metodologik tamoyillarini belgilash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ishonch tushunchasi ko‘plab fanlar kesishmasida turgani bois uning yagona, hamma tomonidan e’tirof etilgan ta’rifi shakllanmagan. Shunga qaramay, mavjud qarashlarni shartli ravishda to‘rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhni falsafiy-sotsiologik yondashuv tashkil etadi. N. Luhmann ishonchni ijtimoiy murakkablikni qisqartiruvchi mexanizm sifatida talqin qiladi: inson boshqalarning har bir harakatini oldindan bila olmagani va nazorat qila olmagani uchun ishonch unga noaniqlik sharoitida ham harakat qilish imkonini beradi. Muallif shaxsiy ishonch bilan bir qatorda pul va hokimiyat kabi ijtimoiy tizimlarga bo‘lgan «tizimli ishonch»ni ham ajratadi [3]. P. Sztompka ishonchni boshqalarning kelajakdagi, oldindan to‘liq bilib bo‘lmaydigan xatti-harakatlariga qo‘yilgan o‘ziga xos «garov» deb hisoblaydi [4]. F. Fukuyama esa ishonchni ijtimoiy kapitalning asosi sifatida ko‘rib, ishonch darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda hamkorlik uchun sarflanadigan xarajatlar sezilarli darajada kamayishini asoslaydi [5].

Bu qarashlarning harbiy jamoa uchun qimmati shundaki, ular ishonchni shunchaki yoqimli his-tuyg‘u emas, balki boshqaruvni «tejaydigan» mexanizm sifatida ko‘rsatadi. Ishonch mavjud bo‘lgan joyda har bir qadamni tekshirish, takroriy nazorat va ortiqcha rasmiyatchilikka ehtiyoj kamayadi. Jangovar yoki favqulodda vaziyatda vaqt eng qimmat resurs ekanini hisobga olsak, bu xulosa sof nazariy emas, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi guruh – psixologik yondashuv bo‘lib, unda ishonchning shaxsiy asoslariga e’tibor qaratiladi. E. Erikson asosiy ishonch va ishonchsizlik o‘rtasidagi

qarama-qarshilikni shaxs rivojlanishining ilk psixososial inqirozi sifatida tavsiflab, insonning keyingi hayotdagi munosabatlari uchun poydevor aynan go‘daklik davrida qo‘yilishini ko‘rsatgan [6]. J. Rotter shaxslararo ishonchni boshqa shaxs yoki guruhning so‘zi, va’dasi, og‘zaki yoki yozma bayonotiga tayanish mumkinligiga oid umumlashgan kutish sifatida ta’riflagan va uni o‘lchash uchun maxsus shkala taklif etgan [7, 651-b.]. M. Deutsch tajribalarida esa ishonch xavf bilan bog‘liq tanlov ekani, ya’ni ishonch bildirgan shaxs o‘zini boshqa birovning xatti-harakatlariga nisbatan zaif holatga qo‘yishi ko‘rsatib berilgan [8].

Rus psixologiyasida T.P. Skripkina ishonchni insonning olam hodisalari va obyektlariga, boshqa odamlarga, ularning hamda o‘zining kelajakdagi harakatlariga oldindan xavfsizlik va ishonchlilik sifatlarini baxsh eta olish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, o‘ziga ishonch va olamga ishonch o‘rtasidagi maqbul nisbat shaxs faolligining muhim sharti hisoblanadi [9]. A.B. Kupreychenko esa ishonch va ishonchsizlikni bir shkalaning ikki qutbi emas, balki nisbatan mustaqil munosabatlar deb biladi: muayyan darajadagi ishonchsizlik shaxsni xavfdan himoya qiluvchi funksiyani bajaradi [10]. Bu fikr harbiy jamoa uchun g‘oyat muhim. Hushyorlikni butunlay yo‘qotgan «ko‘r-ko‘rona ishonch» xizmat xavfsizligiga tahdid solsa, haddan ortiq gumonsirash jamoani ichdan yemiradi. Demak, gap ishonchni cheksiz oshirish haqida emas, balki uning maqbul darajasi va asosliligi haqida borishi kerak.

Sovet ijtimoiy psixologiyasida jamoa muammosini o‘rganishda A.V. Petrovskiyning faoliyat vositasidagi munosabatlar konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, rivojlangan jamoada shaxslararo munosabatlar birgalikdagi faoliyatning mazmuni, maqsadlari va qadriyatlari orqali vositalanadi [11]. Bu yondashuvdan oddiy, ammo muhim xulosa kelib chiqadi: harbiy jamoadagi ishonch ham, avvalo, xizmat-jangovar faoliyat jarayonida shakllanadi, sinovdan o‘tadi va, afsuski, aynan shu jarayonda yemirilishi ham mumkin.

Uchinchi guruh – tashkiliy-boshqaruv yondashuvi. Ushbu sohada eng ko‘p iqtibos keltiriladigan R. Mayer, J. Davis va F. Schoorman modeliga ko‘ra, ishonch – bir tomonning ikkinchi tomonni kuzatish yoki nazorat qilish imkoniyatidan qat’i nazar, u o‘zi uchun muhim bo‘lgan harakatni bajarishini kutgan holda uning xatti-harakatlariga nisbatan zaif bo‘lishga tayyorligidir [12, 712-b.]. Muallif ishonchga loyiqlikni belgilovchi uch omil – qobiliyat, xayrixohlik va halollikni ajratadi hamda ishonch bildiruvchining shaxsiy moyilligini alohida o‘zgaruvchi sifatida modelga kiritadi. D. Rousseau va hammualliflari turli fanlardagi qarashlarni umumlashtirib, ishonchni boshqaning niyati yoki xulq-atvoriga nisbatan ijobiy kutishlarga asoslangan holda zaiflikni qabul qilish niyatini o‘z ichiga olgan psixologik holat sifatida ta’riflaydi [13, 395-b.].

D. McAllister ishonchning ikki shaklini – sherikning malakasi va ishonchliligi haqidagi bilimlarga asoslangan kognitiv ishonchni hamda o‘zaro g‘amxo‘rlik va

emotsional bog‘liqlikka asoslangan affektiv ishonchni farqlaydi [14]. R. Lewicki va B. Bunker ishonch rivojlanishining hisob-kitobga, bilimga va identifikatsiyaga asoslangan bosqichlarini ajratib, uning dinamik tabiatini ko‘rsatadi [15]. K. Dirks va D. Ferrin o‘tkazgan meta-tahlil natijalariga ko‘ra, rahbarga bo‘lgan ishonch xodimlarning ishdan qoniqishi, tashkilotga sadoqati va tashkiliy fuqarolik xulqi bilan mustahkam, ish samaradorligi bilan esa nisbatan kuchsizroq bog‘liq [16]. Bizningcha, bu natija harbiy rahbarlar uchun muhim xulosaga olib keladi: ishonch, eng avvalo, xizmatga munosabat va jamoaviy xulq orqali namoyon bo‘ladi, natijaga esa ular vositasida, uzoq muddatli istiqbolda ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchi guruhni harbiy-sotsiologik va harbiy-psixologik tadqiqotlar tashkil etadi. E. Shils va M. Janowitz Ikkinchi jahon urushi davriga oid tadqiqotida askarlarni jang maydonida ushlab turgan asosiy omil mafkuraviy e’tiqoddan ko‘ra birlamchi guruh, ya’ni eng yaqin safdoshlar bilan bo‘lgan shaxsiy bog‘liqlik ekanini aniqlagan [17]. G. Siebold harbiy guruh jipsligining «standart modeli»da safdoshlar o‘rtasidagi (gorizontal), boshliq bilan (vertikal) va tashkilot bilan (institutsional) bog‘lanishlarni ajratadi [18]. P. Sweeney va hammualliflarining tadqiqotlari esa jangovar xavf yaqinlashgan sari harbiy xizmatchilar o‘z qo‘mondonlariga bo‘lgan ishonchni qayta baholashini, bunda rahbarning kasbiy layoqati, xarakteri va qo‘l ostidagilarga g‘amxo‘rligi hal qiluvchi mezonga aylanishini ko‘rsatadi [19; 20].

Zamonaviy harbiy boshqaruv konsepsiyalarida ham o‘zaro ishonch markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Xususan, missiyaga asoslangan boshqaruv o‘zaro ishonch vakolatlarni topshirish va intizomli tashabbuskorlikning zaruriy sharti sifatida qaraladi [21]. Boshqacha aytganda, qo‘mondon qo‘l ostidagilarga qanchalik ishonsa, ularga shunchalik keng harakat erkinligi bera oladi, bo‘linma esa o‘zgaruvchan vaziyatga shunchalik tez moslashadi.

Tahlil qilingan yondashuvlarning asosiy g‘oyalari va ularning harbiy jamoa uchun ahamiyati 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Ishonch muammosiga oid asosiy ilmiy yondashuvlar va ularning harbiy jamoa uchun ahamiyati

Yondashuv	Asosiy namoyandalari	Ishonchning talqini	Harbiy jamoa uchun ahamiyati
Falsafiy-sotsiologik	N. Luhmann, P. Sztompka, F. Fukuyama	– ijtimoiy murakkablikni qisqartiruvchi mexanizm – kelajakka qo‘yilgan «garov» – ijtimoiy kapital asosi	Nazorat va muvofiqlashtirish xarajatlari kamayishini, tashkilotga bo‘lgan ishonchning ahamiyatini tushuntiradi

Yondashuv	Asosiy namoyandalari	Ishonchning talqini	Harbiy jamoa uchun ahamiyati
Psixologik va ijtimoiy-psixologik	E. Erikson, J. Rotter, M. Deutsch, T.P. Skripkina, A.B. Kupreychenko, A.V. Petrovskiy	– umumlashgan kutish – xavf bilan bog‘liq tanlov – ishonch va ishonchsizlik muvozanati – faoliyat vositasidagi munosabat	Ishonchga moyillikdagi individual farqlarni va ishonchning maqbul darajasini hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi
Tashkiliy-boshqaruv	R. Mayer, J. Davis, F. Schoorman, D. Rousseau, D. McAllister, R. Lewicki, B. Bunker, K. Dirks, D. Ferrin	– zaiflikni qabul qilishga tayyorlik – kognitiv va affektiv ishonch – ishonch rivojlanishining bosqichlari	Qo‘mondonga bo‘lgan ishonch mezonlarini (qobiliyat, xayrixohlik, halollik) aniqlash imkonini beradi
Harbiy-sotsiologik va harbiy-psixologik	E. Shils, M. Janowitz, G. Siebold, P. Sweeney	– birlamchi guruh bog‘lanishlari – vertikal, gorizontal va institutsional bog‘lanish – xavf sharoitida ishonchni qayta baholash	Jipslik va jangovar barqarorlikning psixologik asoslarini ochib beradi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, unda ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va nazariy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil uchun ishonch muammosiga bag‘ishlangan klassik va zamonaviy fundamental ishlar, harbiy sotsiologiya va harbiy psixologiyaga oid tadqiqotlar hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar tanlab olindi. Tadqiqotning metodologik asosini psixologiya fanida e’tirof etilgan quyidagi tamoyillar tashkil etdi.

Tizimlilik tamoyili (B.F. Lomov) ishonchni alohida his-tuyg‘u yoki baho sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlar, darajalar va funksiyalardan iborat yaxlit tizim sifatida o‘rganishni talab qiladi [22]. B.F. Lomov faoliyat bilan bir qatorda muloqotni ham psixologiyaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida ko‘rgani ishonchni tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega, chunki ishonch aynan muloqot jarayonida yuzaga chiqadi va mustahkamlanadi.

Faoliyat tamoyili (A.N. Leontyev, A.V. Petrovskiy) ishonchni birgalikdagi faoliyatning ham sharti, ham mahsuli sifatida ko‘rishga yo‘naltiradi [23; 11]. Bu tamoyil amaliy jihatdan ham muhim: harbiy jamoadagi ishonchni faqat so‘rovnomadagi javoblar bilan cheklanib emas, balki real xizmat vaziyatlaridagi xatti-harakatlar – vazifa topshirish, o‘zaro yordam, axborot almashish orqali baholash lozim.

Determinizm tamoyili S.L. Rubinshteyn ta’kidlaganidek, tashqi sabablar ichki shart-sharoitlar orqali ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutadi [24]. Demak, bir xil buyruq, bir xil xizmat sharoiti yoki rahbarning bir xil xatti-harakati turli xizmatchilarda turlicha ishonch munosabatini yuzaga keltirishi mumkin, chunki bu ta’sirlar har bir shaxsning tajribasi, qadriyatlari va ishonchga moyilligi orqali «sinib» o‘tadi.

Rivojlanish tamoyili ishonchni statik holat emas, balki shakllanish, mustahkamlanish, inqiroz va tiklanish bosqichlariga ega dinamik jarayon sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Bu borada R. Lewicki va B. Bunkerning bosqichli modeli [15] tayanch nuqta bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy-madaniy tamoyil ishonchning milliy-madaniy kontekstini hisobga olishni talab etadi. Xalqimiz madaniyatida jamoaviylik, kattaga hurmat, mehr-oqibat va or-nomus tushunchalari chuqur ildiz otgan. Milliy harbiy merosimizda, xususan, «Temur tuzuklari»da ham qo‘shin boshliqlarini tanlash, sodiq va mard sipohiylarni rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [25]. Biroq bu qadriyatlarning ta’siri bir tomonlama emas. Ular harbiy jamoada ishonchni mustahkamlovchi omil bo‘lishi bilan birga, noto‘g‘ri talqin qilinganda norasmiy ierarxiya va ustavdan tashqari munosabatlarni «oqlash» vositasiga ham aylanib qolishi mumkin. Shu bois ijtimoiy-madaniy omillarni tahlil qilishda ularning ikki tomonlama ta’sirini ko‘zdan qochirmaslik zarur.

Tahlil va natijalar

Harbiy jamoadagi ishonchning o‘ziga xos xususiyatlari.

Harbiy jamoani boshqa mehnat jamoalaridan bir qator xususiyatlar ajratib turadi: hayot faoliyatining umumharbiy ustavlar bilan qat’iy tartibga solinishi, yakkaboshchilik va bo‘ysunuv munosabatlari, xizmat va kundalik turmushning ko‘p hollarda bir makonda kechishi, shaxsiy tarkibning turli ijtimoiy va hududiy muhitdan shakllanishi hamda davriy yangilanib turishi. Eng muhimi, xizmat vazifalarini bajarish hayot va sog‘liq uchun real xavf bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha, aynan shu so‘nggi xususiyat harbiy jamoadagi ishonchga ekzistensial tus beradi. Fuqarolik tashkilotida xodim hamkasbiga ishonib, ko‘pi bilan moddiy zarar ko‘rish yoki obro‘sini yo‘qotish xavfiga boradi. Harbiy xizmatchi esa ko‘p hollarda o‘z hayotini safdoshining hushyorligi, malakasi va jasoratiga ishonib topshiradi. Shu ma’noda R. Mayer va hammualliflarining «zaif bo‘lishga tayyorlik» haqidagi formulasi [12] harbiy sharoitda tom ma’nodagi mazmun kasb etadi.

Ikkinchi muhim jihat – ierarxiya va ishonch o‘rtasidagi munosabat. Birinchi qarashda qat’iy bo‘ysunuv tizimida ishonchga ehtiyoj yo‘qdek tuyuladi: buyruq beriladi va bajariladi. Biroq amaliyot boshqacha manzarani ko‘rsatadi. Rasmiy bo‘ysunuv buyruqning bajarilishini kafolatlaydi, ammo uning qanday sifatda, qanday tashabbus va fidoyilik bilan bajarilishini kafolatlay olmaydi. Buyruqning «harfi» bilan

«ruhi» o‘rtasidagi masofani aynan ishonch to‘ldiradi. Qo‘mondoniga ishongan askar vaziyat buyruqda nazarda tutilmagan tarzda o‘zgarganda ham uning maqsadidan kelib chiqib harakat qiladi. Ishonmagan askar esa rasmiy talabni bajaradi-yu, mas’uliyatdan qochadi.

Shu bois intizom va ishonchni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Fikrimizcha, ularning nisbatini quyidagicha ifodalash mumkin: intizom jamoa faoliyatining «quyi chegarasi»ni – har qanday sharoitda saqlanishi shart bo‘lgan, oldindan aytib bo‘ladigan tartibni belgilaydi, ishonch esa uning «yuqori chegarasi»ni – tashabbuskorlik, o‘zaro yordam va fidoyilik darajasini belgilaydi. Ishonchsiz intizom mo‘rt bo‘ladi: tashqi nazorat susaygan zahoti u ham bo‘shashadi. Intizomsiz ishonch esa beqaror bo‘lib, oson suiiste’mol qilinadi.

Uchinchi jihat – ishonchning asimmetrik dinamikasi. P. Slovic ko‘rsatganidek, ishonch sekin shakllanadi, ammo bitta salbiy hodisa ta’sirida tez yemiriladi [26]. Harbiy jamoada bu qonuniyat yanada keskin namoyon bo‘ladi. Bir marta qabul qilingan adolatsiz qaror, shaxsiy tarkib oldida berilgan, lekin bajarilmagan va’da yoki xavfli vaziyatda rahbarning o‘zini panaga olishi oylar davomida to‘plangan obro‘ni bir zumda yo‘qqa chiqarishi mumkin. Xalqimizning «Ishongan tog‘imda kiyik yotmas» degan maqolida aldangan ishonchning og‘ir ruhiy oqibati ana shunday ixcham ifodalangan.

To‘rtinchi jihat – shaxsiy tarkibning davriy yangilanishi. Navbatdagi chaqiruv, rotatsiya va lavozim o‘zgarishlari tufayli harbiy jamoada ishonch munosabatlari muntazam ravishda qaytadan quriladi. D. Meyerson, K. Weick va R. Kramer vaqtinchalik guruhlar uchun tavsiflagan «tezkor ishonch» (swift trust) hodisasi bu jarayonni tushunishga yordam beradi [27]: shaxsan tanishishga vaqt bo‘lmagan sharoitda odamlar bir-biriga rollar, kasbiy me’yorlar va tashkilot obro‘siga tayanib ishonch bildiradi. Bundan muhim amaliy xulosa kelib chiqadi: yangi tuzilgan bo‘linmada ishonchning dastlabki tayanchi muayyan shaxslar emas, balki aniq taqsimlangan rollar, adolatli qoidalar va ularga og‘ishmay rioya qilinishidir.

Beshinchi jihat – norasmiy ierarxiya va ustavdan tashqari munosabatlarning ta’siri. Ular jamoada qo‘rquvga asoslangan «soxta jipslik»ni yuzaga keltiradi. Tashqaridan intizomli ko‘rinadigan, ammo ichdan qo‘rquv bilan ushlab turiladigan jamoada gorizontal ishonch o‘rnini o‘zaro gumon va «o‘zini himoya qilish» strategiyasi egallaydi. Bunday jamoada jiddiy sinov paytida parchalanish xavfi yuqori bo‘ladi. Shu ma’noda ustavdan tashqari munosabatlarga qarshi kurash nafaqat huquqiy-intizomiy, balki ishonchni saqlashga qaratilgan psixologik vazifa hamdir.

Oltinchi jihat zamonaviy davr bilan bog‘liq bo‘lib, u axborot muhitining ta’siridir. Ijtimoiy tarmoqlar va mish-mishlar orqali tarqaladigan tekshirilmagan ma’lumotlar rasmiy axborot kanallariga bo‘lgan ishonchni susaytirishi, jamoada asossiz xavotir va o‘zaro gumonsirashni kuchaytirishi mumkin. Axborot bo‘shlig‘i qayerda paydo bo‘lsa,

uni tezda mish-mish to‘ldiradi. Shu bois qo‘mondonning o‘z vaqtida, rost va tushunarli axborot berishi bugungi kunda ishonchni saqlashning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda.

O‘zaro ishonchning tuzilmaviy-funksional modeli.

O‘tkazilgan tahlil harbiy jamoadagi o‘zaro ishonchni uch o‘lchovli tuzilma sifatida ko‘rish imkonini beradi: birinchi o‘lchov – ishonchning yo‘nalishlari, ikkinchisi – uning tarkibiy komponentlari, uchinchisi – funksiyalari.

Ishonchning yo‘nalishlari bo‘yicha vertikal, gorizontal va institutsional ishonchni ajratish maqsadga muvofiq. Vertikal ishonch qo‘l ostidagilarning qo‘mondonga va, aksincha, qo‘mondonning qo‘l ostidagilarga bo‘lgan ishonchini qamrab oladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ilmiy adabiyotlarda asosan birinchi yo‘nalish – bo‘ysunuvchilarning rahbarga ishonchi o‘rganilgan, rahbarning bo‘ysunuvchilarga ishonchi esa nisbatan kam tadqiq etilgan [28]. Vaholanki, «o‘zaro» so‘zining o‘zi ikki tomonlamalikni anglatadi. O‘z askariga ishonmagan qo‘mondon vakolat topshira olmaydi, tashabbusni rag‘batlantira olmaydi va natijada barcha qarorlarni o‘z zimmasiga olib, ortiqcha yuklanib qoladi. Gorizontal ishonch bir xil maqomdagi safdoshlar o‘rtasida shakllanib, o‘zaro yordam, axborot almashinuvi va qiyin vaziyatda bir-birini qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladi. Institutsional ishonch esa harbiy xizmatchining harbiy tashkilotga, uning qoidalariga, rag‘batlantirish va jazolash tizimining adolatliligiga hamda ijtimoiy kafolatlarning bajarilishiga bo‘lgan ishonchidir.

Tarkibiy komponentlar nuqtai nazaridan ishonchda to‘rt jihat ajratiladi. Kognitiv komponent sherikning malakasi, ishonchliligi va niyatlari haqidagi bilim va baholarni o‘z ichiga oladi. Emotsional komponent xavfsizlik, yaqinlik va «yelkadoshlik» hissida ifodalanadi. Xulq-atvor komponenti boshqaga tayanish, vazifani topshirish, axborotni ochiq ulashish va o‘zaro yordamga tayyorlikda namoyon bo‘ladi. Qadriyat-me’yoriy komponent esa burch, sharaf va harbiy qasamyodga sodiqlik kabi umumiy qadriyatlarning mavjudligini aks ettiradi. Bizningcha, aynan to‘rtinchi komponent harbiy jamoaga xos bo‘lib, u shaxsiy hamdardlik bo‘lmagan holatlarda ham ishonchni saqlab turadi. Safdoshini shaxsan yoqtirmaslik mumkin, biroq uning qasamyodga sodiqligiga ishonch bildirish mumkin. Professional harbiy jamoaning kuchi ham ko‘p jihatdan shunda.

Funksional jihatdan o‘zaro ishonch harbiy jamoada bir nechta vazifani bajaradi. Integrativ funksiya jamoa jipsligini ta’minlaydi. Regulyativ funksiya nazorat va muvofiqlashtirishga ketadigan vaqt va kuchni tejaydi. Stressdan himoyalovchi funksiya ekstremal vaziyatlarda psixologik zo‘riqishni yumshatadi, chunki xizmatchi o‘zini yolg‘iz his qilmaydi. Kommunikativ funksiya xatolar va muammolar haqida o‘z vaqtida, jazodan qo‘rqmasdan xabar berish imkonini yaratadi. A. Edmondson bunday muhitni jamoadagi psixologik xavfsizlik deb ataydi va uning jamoaviy o‘rganishdagi

ahamiyatini ko‘rsatadi [29]. Nihoyat, rivojlantiruvchi funksiya tashabbuskorlik va kasbiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Modelning amaliy jihatini ochib berish maqsadida 2-jadvalda o‘zaro ishonch yo‘nalishlarini shakllantiruvchi asosiy omillar va ularning namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar keyingi empirik tadqiqotlarda baholash mezonlari sifatida qo‘llanilishi mumkin.

2-jadval

Harbiy jamoada o‘zaro ishonch yo‘nalishlari, ularni shakllantiruvchi omillar va namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari

Ishonch yo‘nalishi	Asosiy shakllantiruvchi omillar	Namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari
Vertikal: qo‘l ostidagilar → qo‘mondon	Qo‘mondonning kasbiy layoqati, halolligi, adolatliligi, shaxsiy namunasi va g‘amxo‘rligi	– buyruqlarni ichki rozilik bilan bajarish – muammolar bilan ochiq murojaat qilish – ekstremal vaziyatda rahbar atrofida jipslashish
Vertikal: qo‘mondon → qo‘l ostidagilar	Xizmatchilarning malakasi, mas’uliyatliligi, avvalgi topshiriqlarni bajarish tajribasi	– vakolatlarni berish – tashabbusga imkon berish – ortiqcha nazoratdan voz kechish
Gorizontal: safdoshlar o‘rtasida	Birgalikdagi faoliyat tajribasi, qiyinchiliklarni birga yengish, o‘zaro yordam me’yorlari, ustavdan tashqari munosabatlarning yo‘qligi	– o‘zaro yordam – axborot almashinuvi – bir-birining xatosini yashirmasdan, ammo kamsitmasdan tuzatish
Institutsional: harbiy bo‘linmaga	Qoidalarning barqarorligi va oshkoraligi, rag‘batlantirish va jazoning adolatliligi, ijtimoiy kafolatlarning bajarilishi, axborotning rostligi	– xizmatdan qoniqish – xizmatni davom ettirish niyati – rasmiy axborot manbalariga tayanish

Manba: muallif ishlanmasi.

Taklif etilgan model ishonchni empirik o‘rganishga ham metodologik asos bo‘la oladi. Fikrimizcha, bu borada yagona metodika bilan cheklanmasdan, bir-birini to‘ldiruvchi usullar majmuasini qo‘llash maqsadga muvofiq. Jumladan, J. Rotterning shaxslararo ishonch shkalasi [7] individual moyillikni, A. Edmondsonning jamoadagi psixologik xavfsizlikni o‘lchash so‘rovnomasi [29] jamoaviy muhitni, J. Moreno asos solgan sotsiometriya usuli [30] esa gorizontal munosabatlar tuzilmasini aniqlash

imkonini beradi. Bu usullarni xizmat-jangovar mashg‘ulotlardagi kuzatuv va qo‘mondonlarning ekspert baholari bilan uyg‘unlashtirish so‘rovnoma natijalarini real xulq bilan solishtirishga sharoit yaratadi. Xorijiy metodikalarni qo‘llashda ularni milliy sharoitga moslashtirish va psixometrik ko‘rsatkichlarini qayta tekshirish shart ekanini ham unutmaslik lozim.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan nazariy tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, ishonch fanlararo tushuncha bo‘lib, uning turli talqinlari bir umumiy nuqtada kesishadi: ishonch – noaniqlik sharoitida boshqaning xatti-harakatlariga nisbatan zaiflikni ongli ravishda qabul qilishdir. Harbiy jamoada bu zaiflik bevosita hayot bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ishonch jangovar qobiliyatning tizim hosil qiluvchi ijtimoiy-psixologik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, intizom va ishonch bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi: intizom jamoa faoliyatining quyi chegarasini, ishonch esa yuqori chegarasini belgilaydi. Shu bois tarbiyaviy ishlarda faqat intizomni mustahkamlashga e’tibor qaratib, ishonch muhitini e’tiborsiz qoldirish kutilgan natijani bermaydi.

Uchinchidan, harbiy jamoadagi o‘zaro ishonchni yo‘nalishlar (vertikal, gorizontal, institutsional), komponentlar (kognitiv, emotsional, xulq-atvor, qadriyat-me’yoriy) va funksiyalar (integrativ, regulyativ, stressdan himoyalovchi, kommunikativ, rivojlantiruvchi) birligida o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunda qo‘mondonning qo‘l ostidagilarga ishonchi alohida tadqiqot obyekti sifatida qaralishi lozim.

To‘rtinchidan, mazkur hodisani tadqiq etishda tizimlilik, faoliyat, determinizm, rivojlanish va ijtimoiy-madaniy tamoyillarni birgalikda qo‘llash metodologik jihatdan asoslidir.

Amaliy jihatdan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: qo‘mondonlar va serjantlarni tayyorlash dasturlariga ishonchni shakllantirish, saqlash va buzilgan ishonchni tiklash ko‘nikmalariga oid mashg‘ulotlarni kiritish; yangi tuzilgan bo‘linmalarda rollar va qoidalarni aniq belgilash orqali «tezkor ishonch»ni qo‘llab-quvvatlash; harbiy jamoalardagi ishonch darajasini muntazam psixologik monitoring qilib borish; shaxsiy tarkibga o‘z vaqtida va rost axborot yetkazish tizimini takomillashtirish.

Kelgusi tadqiqotlar istiqboli taklif etilgan model asosida harbiy jamoalardagi ishonch darajasini baholovchi diagnostik majmuani ishlab chiqish va uni turli harbiy tuzilmalarda, xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifasini bajaruvchi bo‘linmalarda empirik sinovdan o‘tkazish bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2018-yil 9-yanvar, O‘RQ-458-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-27-son Farmoni. 2021-yil 29-noyabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: lex.uz.
3. Luhmann N. Trust and Power. – Chichester: John Wiley & Sons, 1979.
4. Sztompka P. Trust: A Sociological Theory. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
5. Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity. – New York: Free Press, 1995.
6. Erikson E.H. Childhood and Society. – New York: W.W. Norton & Company, 1950.
7. Rotter J.B. A new scale for the measurement of interpersonal trust // Journal of Personality. – 1967. – Vol. 35, No. 4. – P. 651–665.
8. Deutsch M. Trust and suspicion // Journal of Conflict Resolution. – 1958. – Vol. 2, No. 4. – P. 265–279.
9. Скрипкина Т.П. Психология доверия. – М.: Академия, 2000.
10. Купрейченко А.Б. Психология доверия и недоверия. – М.: Институт психологии РАН, 2008.
11. Петровский А.В. Личность. Деятельность. Коллектив. – М.: Политиздат, 1982.
12. Mayer R.C., Davis J.H., Schoorman F.D. An integrative model of organizational trust // Academy of Management Review. – 1995. – Vol. 20, No. 3. – P. 709–734.
13. Rousseau D.M., Sitkin S.B., Burt R.S., Camerer C. Not so different after all: A cross-discipline view of trust // Academy of Management Review. – 1998. – Vol. 23, No. 3. – P. 393–404.
14. McAllister D.J. Affect- and cognition-based trust as foundations for interpersonal cooperation in organizations // Academy of Management Journal. – 1995. – Vol. 38, No. 1. – P. 24–59.
15. Lewicki R.J., Bunker B.B. Developing and maintaining trust in work relationships // Trust in Organizations: Frontiers of Theory and Research / Ed. by R.M. Kramer, T.R. Tyler. – Thousand Oaks: Sage, 1996. – P. 114–139.
16. Dirks K.T., Ferrin D.L. Trust in leadership: Meta-analytic findings and implications for research and practice // Journal of Applied Psychology. – 2002. – Vol. 87, No. 4. – P. 611–628.

17. Shils E.A., Janowitz M. Cohesion and disintegration in the Wehrmacht in World War II // Public Opinion Quarterly. – 1948. – Vol. 12, No. 2. – P. 280–315.
18. Siebold G.L. The essence of military group cohesion // Armed Forces & Society. – 2007. – Vol. 33, No. 2. – P. 286–295.
19. Sweeney P.J., Thompson V., Blanton H. Trust and influence in combat: An interdependence model // Journal of Applied Social Psychology. – 2009. – Vol. 39, No. 1. – P. 235–264.
20. Sweeney P.J. Do soldiers reevaluate trust in their leaders prior to combat operations? // Military Psychology. – 2010. – Vol. 22, Suppl. 1. – P. S70–S88.
21. ADP 6-0. Mission Command: Command and Control of Army Forces. – Washington, DC: Headquarters, Department of the Army, 2019.
22. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – М.: Наука, 1984.
23. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975.
24. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. – М.: Изд-во АН СССР, 1957.
25. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
26. Slovic P. Perceived risk, trust, and democracy // Risk Analysis. – 1993. – Vol. 13, No. 6. – P. 675–682.
27. Meyerson D., Weick K.E., Kramer R.M. Swift trust and temporary groups // Trust in Organizations: Frontiers of Theory and Research / Ed. by R.M. Kramer, T.R. Tyler. – Thousand Oaks: Sage, 1996. – P. 166–195.
28. Brower H.H., Schoorman F.D., Tan H.H. A model of relational leadership: The integration of trust and leader–member exchange // The Leadership Quarterly. – 2000. – Vol. 11, No. 2. – P. 227–250.
29. Edmondson A. Psychological safety and learning behavior in work teams // Administrative Science Quarterly. – 1999. – Vol. 44, No. 2. – P. 350–383.
30. Moreno J.L. Who Shall Survive? A New Approach to the Problem of Human Interrelations. – Washington, DC: Nervous and Mental Disease Publishing Co., 1934.